



TOPISHMOQLARNING BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Holmatova Muzayyan Mubashshirovna

Qo'qon DU o'qituvchisi

Furqatova Gulandon Nodirbek qizi,

Yo'lbayeva Ruhshona Iqboljon qizi

Qo'qon DU talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi na'munalaridan bo'lmish topishmoqlar va ularning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, topishmoqlarning o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, topishmoq, fikrlash, tafakkur, idrok, ertak, doston

Har bir xalq ham hamisha yoshlarning ziyrak, yaxshi xotirali, o'tkir fikrlovchi, ham jismonan, ham ma'nan barkamol inson bo'lishini istagan va bu yo'lda jismni chiniqtirishga qaratilgan maxsus harakatli o'yinlar hamda aqlni charxlash uchun esa insonni teran fikrlashga chorlovchi turli jumboqlar aynan xalq tomonidan yaratilgan. Xalq dostonlari, ertaklarini o'qigan vaqtimizda voqealar rivojida asar qahramonlarining turli sinovli vaziyatlardan o'tishiga guvoh bo'lamiz. Bu sinovlarning ba'zilar jismoniy kuch talab qilsa, yana boshqa turi qahramonlarning zehni, ularning qanchalik dono hamda ziyrak ekanliklarini tekshiradi.

Topishmoq, topmacha, jumboq, matal — xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy va ommaviy janridir. Jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati, urf-odatlarini ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Topishmoqda echilishi mumkin bo'lgan so'roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma'nosi yashirincha bo'ladi. Topishmoqda narsa yoki hodisa boshqa narsa yoki hodisaga o'xshatish, o'zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavydalaniriladi. Topishmoqlar ba'zan nasriy, ko'pincha she'riy shaklda, kompozitsion va ritmik jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo'ladi. Masalan, «Bir parcha patir, olamga tatir» (oy), «Oppoq dasturxon yer yuzini qoplagan (qor), «Past osmondan qor yog_ar» (elak). Ayrim topishmoqlar maqol xususiyatiga ham ega bo'ladi. Masalan, «Hammaga to'n tikaman, o'zim yalang'och» (igna). Topishmoqda metafora, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash, takror kabi ifoda vositalari keng foydalaniladi. Masalan, «O'zi bir qarich, soqoli qirq qarich» (igna), «Yer tagida oltin qoziq» (sabzi), «Zilzil gilam, zil gilam, zildan ham og'ir gilam» (yer) kabi.

Bog'cha yoki endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchilar uchun bir necha predmetli topishmoqlarni o'rta tashlash yaramaydi. Asta-sekinlik bilan soddalikdan murakkablikka tomon o'sib borish lozim. Shunda boshlang'ich sinflar uchun qiyinchilik tug'dirmaydigan ta'lim berish mumkin bo'ladi. O'qituvchi topishmoqni aytgandan so'ng topishmoq yuzasidan o'quvchilar bilan savol-javob ham olib borishi mumkin. Bu bolalarning topishmoqdagi yashirin jihatlarni yaxshiroq anglab yetishlariga,

so‘rallyotgan predmetga yaqinroq fikr yuritishga hamda ravon so‘zlashga o‘rganadilar.

Xalq topishmoqlari orasida inson a‘zolariga bag‘ishlangan ko‘plab topishmoqlar kichkintoylar quvonchiga quvonch qo‘shib kelmoqda. Shu narsa ham qiziqarliki, xalq o‘zi to‘qigan asarida inson a‘zolariga alohida urg‘u beradi. Har bir a‘zoning inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etishini to‘laqonli tinglovchi ongiga yetkazadi. Ana shunday a‘zoldan biri — tish topishmoqda yuksak darajada ta‘rifga ega: Biz-biz edik, biz edik, O‘ttiz ikki qiz edik. Ikki safga tizildik, Birin-ketin uzildik.

Topishmoqlarni kartochkalarga yozib ham tarqatish mumkin, bunda o‘quvchilarga topishmoqning javobini topishni aytiladi, o‘quvchilar topishmoq javobini topishga kirishadilar va topgach, shu o‘quvchi topishmoqni sinfga baland ovozda eshittiradi, so‘ng uning javobini aytiladi. Bu metod juda ham samarali bo‘lib, sinfdagi hamma o‘quvchilar e‘tibor bilan topishmoqni eshitadilar, darsda osoyishtalik vujudga keladi, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni o‘ylashga, topishmoqning javobini topishga undaydi. Topishmoqning javobini topishni uyga vazifa qilib berish mumkin. Bunday holda o‘quvchi qiynalsa, ota-onasi yoki aka-opalaridan yordam so‘raydi. Keyingi darsda bu topshiriqni o‘qituvchi, albatta, tekshirishi lozim. O‘tilgan mavzuni so‘rash davomida topishmoq javoblari ham so‘raladi. To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri topilganligi o‘quvchilar yordamida solishtirib tekshiriladi. O‘quvchini baholash jarayonida topishmoqqa berilgan javoblar hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madiyarov Tez aytish va topishmoqlar -nutq o‘stirishda o‘rni. "O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limi" ilmiy jurnali. 2019.B 592.

2. Boymurodova G, Sattorova X " O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma" " O‘qish kitobi 2-sinf. Toshkent 2015. B 27

3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. -Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006

4. Yigitaliyeva, S., & Yo‘ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O‘QITISHNING NAZARIY MASALALARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 41-44.

5. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. *Mug‘allim*.

6. Isog‘aliyeva, Y. S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslarini o‘rgatishning lingvistik konseptual asoslari. *Integratsiyalashgan ta‘lim va tadqiqotlar jurnali*.

7. Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so‘z ta‘rifi. *Scienceweb academic papers collection*.